Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari	592
Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehra	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	598
Hamraqulova Gulandom Sodiqli qizi	
Raqamli o'yinlarga (mobile games) qaramlikning kognitiv samaradorlikka salbiy ta'siri	601
Turamov Muhammadzohid Rustamjon o'g'li	
OTM talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosida ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirishning zamonaviy metodlari	605
Sobirov Zahriddin Sadriddinovich	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda kiriyativlikni rivojlantirish	609
Qo'chqarov Mirzavali Qo'zibayevich	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish	613
Yaqubova Dinora Bahodirovna	
Zamonaviy ta'lim tizimida AR (Augmented Reality) texnologiyalarining qo'llanilishi	617
Abdumo'minov Burxonjon Sunnatillo o'g'li	

The Role of Psychological Support in the Formation of Students' Socio-Emotional Competence in Preschool Education	622
Kamoliddinova Diyora Jaloliddin qizi	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi	626
Xudoynazarova Moxira Xakimovna	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini metodlar orqali rivojlantirish	629
Ro'zmetov Ravshan Sharipbayevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini tarbiyalash	633
Uljayeva Sevara Abdirazzoqovna	
Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy darsliklar tuzilishi va mazmuni	638
Po'latova Marjona Inomjon qizi	
STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar	643
Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish	646
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
O'quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi va uning dolzarb muammolari	650
Gaparova Mastona Safaraliyevna	
Adabiyot darslarini o'qitishda 5E modelidan foydalanish	654
Abdiraupova Zarnigor Abdinabi qizi	
Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari	657
Ernazarov Alisher Ergashovich, Chinqulova Gulmevra	
Traditional Techniques and Modern Approaches in the Production of National Costumes	665
Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi	
Pedagogik platformalar va kognitiv-didaktik yondashuvlar integratsiyasi yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish	668
Raxmonov Omadjon Mamasidiq o'g'li	
Aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyaning bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning ahamiyati	672
Usmonov Umid Allayorovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish	676
Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinovna Sadriiddinova	
Tadqiqotchilik kompetentligi pedagogik muammo sifatida	681
Ergashev Nozim Nabiyeovich	
Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers	684
Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi	
Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash	687
Karimova Charos Abduhalim qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari	691
Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi	
"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili	695
Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich	
Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar	699
Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	705
Zokirova Nargiza Akbarjonovna	
Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari	710
Eshnazarova Farida Jo'raqulovna	
Ta'lim islohotlari sharoitida genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari	714
Yaxyayeva Sojida Abduraximovna	
Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi	718
Berdiyeva Malika	
Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish	721
Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi	



Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	726
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi	
Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari	731
Nazarova Mohigul Akmalovna	
Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar	736
Arabova Muxiba Bazarovna	
Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств	740
Хомидова Камола	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
Бекназаров Собиржон	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni	748
Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li	
Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari	752
Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
Мусаева Елена Казимовна	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi	767
Sh. L. Rahmonova	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA OG'ZAKI NUTQ RIVOJLANISHINING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

Musayeva Nafisa Kudratovna
NavDU dotsent

Muxammadova Saodat Muzaffar qizi
NavDUMagistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari yoritilgan. Unda nutqning shakllanish jarayonida idrok, xotira, tafakkur, emotsional holat hamda ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, bolaning lingvistik kompetensiyasi, grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish dinamikasi va semantik tizimning rivojlanishi psixolingvistika nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, og'zaki nutq, maktabgacha yosh, lingvistik kompetensiya, idrok, semantika, nutq rivoji.

Abstract: This article examines the psycholinguistic foundations of oral speech development in preschool children. It analyzes the interaction of perception, memory, thinking, emotional state, and social environment in the process of speech formation. In addition, the child's linguistic competence, the dynamics of mastering grammatical structures, and the development of the semantic system are analyzed from a psycholinguistic perspective.

Key words: psycholinguistics, oral speech, preschool age, linguistic competence, perception, semantics, speech development.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психолингвистические основы развития устной речи у детей дошкольного возраста. Проанализировано взаимодействие восприятия, памяти, мышления, эмоционального состояния и социальной среды в процессе формирования речи. С психолингвистической точки зрения исследуются лингвистическая компетенция ребенка, динамика усвоения грамматических структур и развитие семантической системы.

Ключевые слова: психолингвистика, устная речь, дошкольный возраст, лингвистическая компетенция, восприятие, семантика, развитие речи.

KIRISH

Maktabgacha yosh – bu bola hayotidagi eng tezkor o'sish va rivojlanish jarayoni kechadigan bosqich bo'lib, aynan shu davrda bolaning asab tizimi, miyasi hamda psixik faoliyati faol shakllanadi. Shu sababli ushbu davrda kognitiv rivojlanishni to'g'ri yo'naltirish va boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishlaydigan tarbiyachi va pedagoglar bolalar bilan doimiy muloqotda bo'lishi, ularning qiziqishlarini anglash, o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini qo'llab-quvvatlash hamda har bir bolaning intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay muhit yaratishi zarur. Buning uchun, avvalo, pedagogik jarayonda maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini chuqur tahlil qilish, ularning yoshiga xos psixologik jihatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy kompetensiyasi shakllanadigan eng muhim bosqich bo'lib, psixolingvistika mazkur jarayonda psixologik mexanizmlar bilan lingvistik tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qiladi. Nutq rivojining dastlabki poydevori aynan shu davrda shakllanishi va keyingi aqliy, ijtimoiy hamda kommunikativ faoliyatga kuchli ta'sir ko'rsatishini ilmiy tadqiqotlar tasdiqlaydi. Aynan shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalarida nutqni rivojlantirish jarayoniga psixolingvistik yondashuvni joriy etish zarur hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixolingvistika – lingvistika hamda psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan, inson nutq faoliyati va uni ta'minlovchi psixologik jarayonlarni o'rganuvchi fan hisoblanadi. Ushbu soha, ayniqsa, bolalarda nutqning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va uning psixologik asoslarini tahlil etishda muhim



ahamiyat kasb etadi. Psixolingvistik yondashuv bolalar nutqidagi o'ziga xosliklarni chuqur tadqiq qilishga, shuningdek, nutqning turli jihatlarini ilmiy asosda tushunishga yordam beradi. Psixolingvistika bolalarda nutq hosil bo'lishining bosqichma-bosqich mexanizmlarini, ya'ni idrok, eshituv differentsiallashtirish, nutqiy xotira, semantik fikrlash hamda grammatik konstruksiyalarni o'zlashtirish jarayonlarini chuqur o'rganadi.

Berlin universiteti professori Geyman Shteyntal (1823–1899) psixologizm ta'limotining asosiy namoyandalaridan biri hisoblanadi. Shteyntal ta'limotidagi eng muhim g'oya nutq va tilni tafakkur quroli, fikrni ifodalash vositasi sifatida talqin etishiga asoslanadi, biroq psixologizm yo'nalishi tilning ijtimoiy hodisa ekanligini inkor qilgan. Shteyntalning ilmiy qarashlariga A. A. Potebnya, G. Paul, J. Boduen de Kurtene, shuningdek, F. de Sossyur, E. Sepir va L. V. Shcherba kabi olimlar tomonidan ham e'tibor qaratilgan¹.

Psixolingvistika tilshunoslikning yangi yo'nalishlari – kommunikativ tilshunoslik, matn lingvistikasi, matnni tahlil qilishda antroposentrik yondashuvlar, kognitiv tilshunoslik, pragmatolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, lingvoo'lkashunoslik hamda etnolingvistika bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur fan ushbu yo'nalishlarda ko'tariladigan masalalarni o'rganish, tahlil qilish va ularni psixologik jarayonlar bilan uyg'un holda izohlashga xizmat qiladi. Rus tilshunosligida ushbu yo'nalish rivojiga katta hissa qo'shgan A. A. Zalevskyaning ta'kidlashicha, psixolingvistikaning asosiy vazifasi "tilning amal qilinishini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish"dan iboratdir².

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining psixologik rivojlanishini tahlil qilishda L. S. Vygotskiy, J. Piaget va E. Erikson kabi olimlarning nazariyalari til, tafakkur va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda fonetik-fonematik idrokning rivojlanishi og'zaki nutqning asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Fonemalarni farqlash, to'g'ri talaffuz qilish, nutqiy ritm va intonatsiyani o'zlashtirish jarayoni psixologik yetuklik va til tizimining o'zaro integratsiyasi orqali shakllanadi. Agar ushbu mexanizmlar erta yoshda yetarli darajada rivojlanmasa, keyinchalik o'qish va yozish malakalarida turli qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish jarayonini psixolingvistik nuqtayi nazardan tashkil etish bola shaxsining intellektual, ijtimoiy va kommunikativ salohiyatini oshirishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan nutq o'stirish mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida psixolingvistik diagnostika, individual nutq xaritasini tuzish, multimodal o'yinlar va interfaol metodlar asosida tizimli ishlash ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv kelgusida maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish, erkin muloqotga kirishish va mustaqil fikrlash kompetensiyalarining shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutqning rivojlanishi psixolingvistikaning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Psixolingvistika nutqning psixologik va lingvistik jarayonlar birligida shakllanishini o'rganadi. Maktabgacha yosh davri nutq taraqqiyotining sezgir davri sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lib, aynan shu bosqichda bola tilining asosiy tizimlarini faol o'zlashtira boshlaydi. Tilning kommunikativ funksiyasi bolaning ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Bolaning ilk og'zaki nutqi biologik poydevor asosida vujudga keladi va bu jarayonda eshitish analizatori asosiy ahamiyat kasb etadi. Fonematik eshituv bolaning nutq rivojlanishida yetakchi o'rin tutadi. Bola atrofdagilar nutqini eshitish orqali til qoidalarini taqlid asosida, ayrim tushunchalarning mazmunini to'liq anglamagan holda o'zlashtiradi. Ushbu jarayon psixolingvistikada tabiiy tilni o'zlashtirish mexanizmi sifatida izohlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning nutq rivojlanishida ijtimoiy muhitning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, ona nutqi bolaning til taraqqiyotida asosiy model vazifasini bajaradi. Nutq faoliyati kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy, bajarilishi jihatidan esa psixofiziologik jarayon hisoblanadi. Og'zaki nutqning shakllanishida xotira jarayoni ham muhim rol o'ynaydi. Bola eshitgan so'zlarni eslab qolish orqali lug'at boyligini kengaytiradi. Xotiraning rivoji nutqning grammatik tizimini o'zlashtirishga yordam beradi. Diqqatning barqarorlashuvi bola nutqining izchilligini ta'minlaydi. Tafakkur jarayoni esa nutqning mazmunan boyishini belgilaydi. Psixolingvistika nuqtayi nazaridan nutq va tafakkur o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, nutq tafakkurning tashqi shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bola uchun nutq atrof-muhitni idrok etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bola nutq orqali o'z fikrini ifodalaydi va boshqalarning fikrini anglaydi. Nutqning rivojlanishi bolaning emotsional-irodaviy o'sishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Og'zaki nutq bolaning ijtimoiylashuvi uchun asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Bola kattalar bilan muloqot jarayonida nutq qobiliyatini mustahkamlaydi.

1 Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O'quv-uslubiy qo'llanma, B. 83-84

2 Залевская А.А. Введение в психолингвистику. Учебник для студентов высших учебных заведений. – М., 1999. – С.25.

3 Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М., 1991. – 93 с., Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. – СПб., 1997. – 251 с.



Maktabgacha ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlarida rasmlar asosida hikoya tuzish mashqlari nutqni rivojlantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu mashqlar bolalarda nutqiy muloqotning mantiqiy bog'lanishlarini shakllantirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy nuqsonlar tez-tez uchraydi va bunday nuqsonlarning aksariyati fonematik idrokning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Nutqiy nuqsonlarni erta aniqlash ularni samarali bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Psixologik diagnostika nutq kamchiliklarining sabablarini aniqlashga yordam beradi, logopedik yordam esa nutqning to'g'ri shakllanishini ta'minlaydi.

Nutq rivojlanishida psixogen omillar ham muhim rol o'ynaydi. Emotsional holat nutq sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'ziga ishonchi past bo'lgan bolalarda nutqiy faollikning pasayishi kuzatiladi. Ijtimoiy qo'rquvlar nutqning susayishiga olib kelishi mumkin. Muloqot muhitining yetishmasligi nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun maktabgacha yoshda muloqotga boy muhit yaratish zarur. Nutq rivojlanishining muvaffaqiyati kattalar nutqining sifati bilan chambarchas bog'liq. Bola qanchalik ko'p va sifatli muloqot qilsa, uning lug'at boyligi shunchalik tez kengayadi, muloqotning cheklanganligi esa nutqiy rivojlanishni sekinlashtiradi. Emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlovchi muhit nutq rivoji uchun nihoyatda muhim bo'lib, kattalarning ijobiy munosabati bolaning nutqiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Nutq rivojida multimodal o'rganish usullari ham samarali hisoblanadi, chunki ko'rish, eshitish va harakat faoliyati orqali tilni o'zlashtirish jarayoni tezlashadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nutq jarayonida motorika bilan bog'liq elementlar ham ishtirok etadi. Mayda motorikaning rivojlanishi nutq rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Barmoq o'yinlari nutqni rag'batlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Psixolingvistik tadqiqotlar bolalar tilni o'zlashtirish jarayonida motorik faoliyatning o'rni muhim ekanligini alohida ta'kidlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojining ijtimoiy aspektlari kuchli bo'lib, bola o'z tengdoshlari bilan muloqot jarayonida bo'lganida nutqi faol rivojlanadi. Tengdoshlari bilan o'yin faoliyati davomida bola yangi so'zlarni o'zlashtiradi, ayniqsa, o'yin jarayonidagi dialoglar nutqning tabiiy shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tengdoshlari o'rtasidagi muloqot ijtimoiy kompetensiyaning rivojlanishiga yordam beradi hamda nutqning rivojlanishi shaxslararo munosabatlarning mustahkamlanishiga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy tajriba cheklangan bo'lsa, nutq rivoji sekin kechadi. Keng nutqiy tajribaga ega bo'lgan bola murakkab gap tuzishga moyil bo'ladi. Lug'at boyligi rivojlangan bola o'z fikrini ancha ravon ifodalay oladi. Kattalarning bolalarga kitob o'qib berishi nutq rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Audio va vizual materiallar ham nutq o'sishini rag'batlantiradi. Ertak tinglash semantik tizimning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ertak asosida hikoya aytirish mashqlari monologik nutqning kuchayishiga xizmat qiladi. Bola o'qilgan matnni qayta hikoya qilishi jarayonida mantiqiy nutqi rivojlanadi. Maktabgacha yosh davrida nutqning emotsional-ekspressiv jihatlari ham izchil shakllanadi.

Nutqning rivojlanishi bolaning ijtimoiy moslashuv darajasini aks ettiradi. Ijtimoiy jihatdan moslashgan bolalarda nutq faolligi yuqori bo'ladi. Psixolingvistika nutqning kognitiv mexanizmlarini chuqur tahlil qiladi, chunki kognitiv jarayonlar nutqning mazmuniy jihati bilan bevosita bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida mantiqiy izchillik asta-sekin shakllanadi va bu holat kognitiv taraqqiyotning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Nutqdagi izchillik bola tafakkurining rivojlanishi bilan yanada kuchayadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik tizimi bosqichma-bosqich boyib boradi. Grammatik kategoriyalarning o'zlashtirilishi bolada sintaktik mustaqillikni oshiradi. So'z yasash va so'z o'zgartirish mexanizmlari faol ishlay boshlaydi. Bolalar so'z yasash orqali o'z lug'atini boyitadilar. Boy lug'at tizimiga ega bo'lgan bolalar ta'limning keyingi bosqichlarida ham faol bo'lib, psixologik jihatdan bilim olishga tayyor bo'ladilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yosh davrida og'zaki nutqning shakllanishi bolaning psixik rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, psixolingvistik yondashuv ushbu jarayonning mazmuni va mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu davrda nutq rivoji tafakkur, idrok, xotira va e'tibor kabi kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bola tilni nafaqat kommunikativ vosita sifatida, balki o'z dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim poydevor sifatida egallaydi. Psixolingvistika nuqtayi nazaridan qaraganda, bola nutqining rivojlanishi til tizimini eshitish orqali qabul qilish, tushunish, qayta ishlash va ishlab chiqarish jarayonlari orqali amalga oshadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muloqotga boy muhit, kattalarning to'g'ri nutqiy namunasi, emotsional qo'llab-quvvatlash hamda o'yin faoliyati bolaning nutqiy faolligini oshiradi va lug'at boyligi, grammatik tuzilmalar hamda dialogik nutqning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishidagi individual farqlarni hisobga olish va psixolingvistik qonuniyatlarga asoslangan metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligini yanada oshiradi.



Umuman olganda, og'zaki nutqning psixolingvistik asoslarini chuqur o'rganish pedagog va tarbiyachilarga bolalarda nutqiy rivojlanishni ilmiy asosda rejalashtirish va takomillashtirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi hamda intellektual jihatdan barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бабаева Т. Н., Солнцева О. В. Психоллингвистика детской речи. – Москва: Академия, 2019.
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 2019.
3. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М., 1991. – 93 с.
4. Леонтьев А. А. Основы психоллингвистики. – Москва: Смысл, 2020.
5. Musayeva N. K. O'zbek bolalar kvazidialogik nutqining pragmatik xususiyatlari. Monografiya. – Navoiy, 2024. – 123 b.
6. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – B. 83–84.
7. Залевская А. А. Введение в психоллингвистику: учебник для студентов высших учебных заведений. – М., 1999. – С. 25.
8. <https://incop.org/index.php/ens/article/view/1247/1226>
9. Kosimovna A. R. On the role and importance of stylistics in linguistics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 2022; 12(4): 206–208.
10. Abdurakhmanova R. K. (2015). Hermeneutical and pragmalinguistic category of the deixis. Nauka i mir, (10–2), 10–12.
11. Kosimovna A. R. UDK: 81.39. Paradigmatic properties of deictic units in the text.
12. Abdug'afforovna Q. D. (2024). Boburiylar davrida adabiyotga bo'lgan e'tibor. American Journal of Multidisciplinary Bulletin, 2(4), 71–75.
13. Madaminovich T. X. I., Samariddinovich S. S., Shavkatovna R. G., A'jil N., Koşmak F., & Cuma A. Tahririyat kengashi.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.